



GANCHKORLIK SAN'ATI VA RIVOJLANISHI

San'atshunoslik va pedagogika fakulteti

Tasviriy va amaliy san'at kafedrası

dotsenti S. S.Abdullayev

San'atshunoslik tasviriy va amaliy

san'at ta'lim yo'nalishi talabasi

Yusupova Gulniso Qahramon Qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ganchkorlik san'ati va uning rivojlanishi amaliy san'atda keng tarqalgan sohalaridan biriligi haqida yoritilgan. Ganchkorlik san'at ustalari, maktablari va ganchkorlikda ishlatildigan naqshlar va asbob uskunalar haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *naqsh, ganch, pardoz, chok, lo'la pardoz, shabaka, taxmon, zanjira, javon, girix, muqarnas, sharafa, turunj, madohil.*

Аннотация: *В данной статье описывается искусство Ганчкора и его развитие как одного из самых распространенных направлений прикладного искусства. Освещены мастера, школы, узоры и инструменты, используемые в ганчкоре.*

Ключевые слова: *узор, ганч, пардоз, чок, лола пардоз, шабак, тахман, занджира, джаван, гирих, мукарнас, шарафа, турундж, мадохил.*

Annotation: *This article describes the art of Ganchkor and its development as one of the most widespread areas of applied art. The masters, schools and patterns and tools used in ganchkor are covered.*

Key words: *pattern, ganch, pardoz, chok, lola pardoz, shabak, takhman, zanjira, javan, girikh, muqarnas, sharafa, turunj, madohil.*

Amaliy san'atning keng tarqalgan sohalaridan biri. Ganchga o'yma naqsh va tasvir ishlashning qulayligi ganch o'ymakorligining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ganch qorishmasi yangi bo'lsa oson kesiladi, bu unda shakllar o'yish va yasash



imkonini beradi, lekin u qotgandan so'ng toshga o'xshab qattiq bo'lib qoladi. Ganchkorlikda naqshlar maxsus metall keskichlar vositasida tekis (2-3 o'lcham) va chuqur (2-3 o'lcham) o'yib solinadi, o'yilgan naqsh yuzi rangli va rangsiz gulganch bilan pardozlanadi.

Pardoz turlaridan chok pardoz, pax pardoz, lo'la pardoz, shabaka kabi pardozlar keng qo'llanadi. Naqshlar mujassamoti o'simliksimon (islamiy) va handasiy (girix) naqshlardan tashkil topgan. Jumladan taxmon, tokcha, javonlar o'yma naqshlar bilan, ularning yuqori devor bilan shift tutashgan joylari sharafalar bilan bezatiladi, atroflari ensiz zanjira bilan o'raladi.

O'rta Osiyo hududida 1-asrdan ganchga o'yma naqsh ishlangan. Xorazmdagi Tuproqqal'a, Buxorodagi hukmdorlar saroylari va boshqa joylardagi arxeologik qazishmalar jarayonida ganch o'ymakorligi namunalari topilgan. Qadimgi qal'a shaharlar binolari bezagida va ilk o'rta asrlar yodgorliklarida o'yib, bo'yab, bo'rttirib tasvirlar ishlangan (Varaxsha, Panjakent, Afrosiyob va b.), terrakota (sopol) haykalchalar topilgan. Islom dini kirib kelishi bilan mahobatli binolar (saroy, madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy va b.) bezagida tasvirlar o'rnini o'yma girih va islamiy naqshlar egallaydi. O'zbekistonda saqlangan me'moriy yodgorliklar qadimda naqsh san'ati yuksak darajada rivojlanganligi ko'rsatadi.

Ustalar handasani puxta o'rganib, ganch o'ymakorligi san'atini yaxshi egallaganliklarini ko'rish mumkin. Termiz shohlar saroyi (XII asr)dagi ganch o'ymakorligi namunalari qolipaki usulida tayyorlanib, so'ng devorga mustahkamlangan, XII-XIII asrlarda Xorazmda muqarnas san'ati rivojlangan. XIV-XV asrlarda mahobatli binolar bezaklarida sirkor g'isht, koshindan ko'p foydalanilgan bo'lsa ham, ularga ganchdan muqarnas, sharafalar ko'p ishlangan. (mas: Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasi). XVII-XIX asrlarga mansub binolar: Samarqanddagi Registon ansambli, Buxorodagi Abdulazizxon madrasasi, Xivadagi Pahlavon Maxmud maqbarasi, Toshhovli saroyi, umuman Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Xorazm me'moriy yodgorliklaridagi ganch o'ymakorligi namunalari bu davrlarda shu joylarda ganch o'ymakorligining o'ziga xos uslublari



shakllanganligini ko'rsatadi. Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa, Samarqanddagi Kalontarov uyi, Toshkentdagi Polovsev uyi, ko'p sonli uylar bezaklari shundan dalolat beradi.

Ganch o'ymakorligi kasbi "ustoz-shogird" usulida avloddan avlodga o'tgan. XX asr 60-yillaridan ganch o'ymakorligidan badiiy bilim yurtlarida, badiiy korxonalar qoshida, havaskorlik to'garaklarida ta'lim berilgan. Keyinchalik Respublika rassomlik kollejida badiiy ganchkorlik bo'limi ochilgan (1994). O'zbekistonning shahar va qishloqlarida barpo etilgan aksariyat jamoat binolari xalq ustalari ishtirokida ganch o'ymakorligi bilan bezatilgan: Muqimiy teatrining binosi (1943), Navoiy teatri binosi (1947) va boshqa binolar ham ganchkorlik bilan bezatilgan. Buxoro zali (Usta Shirin Murodov), Toshkent zali (T.Arsloshulov), Samarqand zali (Usta Quli Jalilov), Xiva zali (A. Boltayev). XX asrning 2-yarmida bunyod qilingan binolar: O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi, Xalqlar do'stligi saroyi, Turkiston saroyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Oliy Majlis binosi ganch o'ymakorligi bilan bezatilgan.

O'zbekistonda o'ziga xos ganchkorlik maktablari mavjud. Shulardan biri Xorazm ganchkorlik maktabidir.

Xorazm maktabida geometrik naqshlarga alohida o'rin berilgan bo'lib, u boshqa viloyatlarga qaraganda o'ziga xosligi bilan alohida o'rin egallaydi. Ko'pincha, o'simliksimon naqshlar spiral shaklida aylanmaligi va dinamikligi bilan farq qiladi. Islimiy naqshlar yaxlit-yaxlit turunj, madohil, qalampir, va bodomga o'xshash tanob shakllarining takrorlanib kelishidan hosil bo'ladi. Ko'p hollarda turunj, madohil tanoblari o'rniga yulduzsimon girihlar ham ishlatiladi. Islimiy naqshlarda novda ko'p ishlatilib, marg'ula, barg, uch barg, shukufta, oygul, no'xot gul, kurtak va g'unchalar ham qo'llaniladi. Xorazm maktab ustalarining naqshlarni ko'p hollarda ko'k va yashil rang bilan bezaganlar. Ro'zimat Masharipov, Karimbergan Rahimov, Karimbergan Polvonov, Yusuf Xudoyberganov, Bekjon Yoqubov, Odamboy Bobojonov, Odamboy Yoqubov kabilar Xorazm ganchkorlik maktabi mashhur ustalaridandir.



Buxoro ganchkorlik maktabi bu sohada eng mashhur. Bu maktab ishlari o'yma ganchlarning yirikligi, mayinligi, jozibadorligi va boshqa tomonlari bilan alohida o'rin turadi.

Buxoro ganchkorlik maktabining eng yirik namoyandalaridan biri akademik Usta Shirin Murodov hisoblanadi. Buxorolik Usta Safar, Usta Adis, Usta Savri, Usta Isom, Usta Ikrom, Usta Jo'ra, Usta Qurbon Yo'ldoshev, Usta Ibrohim Hafizov, Usta Nazrullo Yodgorov, Usta Hayot Nosirov va boshqalar mamlakatimizda taniqli.

Toshkent ganchkorlik maktabi hamalohida o'ringa ega. Toshkent maktabi naqshlar nozikligi, aniq simmetrik taqsimga egaligi, jozibadorligi bilan ajralib turadi. Toshkent ganchkorlik maktabi namoyandalari safida Usmon Ikromov, Toshpo'lat Arslonqulov, Mahmud Usmonov, Anvar Po'latov, Mirmahmud Rahmatov, aka-uka Abdurahmon va Mo'min Sultonovlar, Hayot Abdullayev, Ziyodulla Yusupov, Umar Tohirov, Mirvohid Usmonov kabi mashhur ustalar bor.

Ganch o'ymakorligi turlari. Kichik xonaga mayda tekis o'yma va unga mos bo'lgan pardoz turi, katta mehmonxonalarga esa yirik o'yma va shunga mos naqsh qo'llaniladi.

Ganch o'ymakorligi yirik o'yma, chuqur o'yma, yassi o'yma, qirma, zamini ko'zguli o'yma, zamini rangli o'yma, chizma pardoz, panjarasimon o'yma, zanjir, hajmli o'yma turlaridan iborat. Ganch o'ymakorligi turlari zaminli va zaminsiz o'ymalarga bo'linadi. Eng ko'p qo'llaniladigan o'yma bu - yassi o'ymadir. U xonaning interyerda ko'p qo'llaniladi. Katta bo'lmagan xonalarda o'ymaning chuqurligi 1-1,5 sm bo'lib, unga har xil pardoz turlari beriladi. O'yma naqshning zamini umumiy yuzaning 30-60 % egallaydi. Unga joyiga moslab pax pardoz, choka pardoz, lo'la yoki tabaqa pardoz beriladi. Qirma - o'yilgan joylar rangli ganch qorishmasi bilan to'ldirib chiqiladi.

Ganchni o'yish va pardozlash uchun ishlatiladigan asboblari va uskunalar. Jarrohlik pichog'i (skalpel) — po'latdan yasalgan, har xil o'lchamli asbob. Undan hozir ganch o'yrakorligida keng foydalanilyapti. O'ymaning katta yoki kichikligiga qarab, ustalar har xil o'lchamdagisini ishlatadilar. Uni avval charxlab, dastasini qo'lga botmaydigan qilish uchun ikki tomoniga yupqa faner qo'yib,



izolenta o‘rab, keyin ishlatadilar. Bu pichoq gulni chizishda, kesishda, o‘yishda va pardoz berishda ishlatiladi.

Iskana — duradgorlik asbobi, uning uchi og‘ma holatda kesik bo‘lishi ham mumkin. Iskanalar har xil kattalikda bo‘ladi. Kichigi mayda o‘ymalarda, kattasi yirik o‘ymalarda ishlatiladi. Iskana temir sterjenining uzunligi 7 sm dan 10 sm gacha bo‘lishi mumkin. Iskanani maktab ustaxonasida ham yasabolsa ham bo‘ladi. Shuturgardon — ganch o‘ymakorligidagi asosiy o‘yma asbob, o‘qli (sterjenli) bel qismi tuya bo‘yniga o‘xshash. Shuning uchun uni «shuturgardon», ya‘ni «tuyabo‘yin» deb atashadi.

Pux qalam — xanjarga o‘xshash, ikki tomonga qiyalab ketgan o‘tkir uchli (faqat uchi ilmoqqa o‘xshash, qayrilgan bo‘ladi) asbob. Keskich uzunligi 10 sm dan 18 sm gacha uzunlikda bo‘ladi. Pux qalam egri sirtlarni tekislashda, stalaktitlar bilan ishlashda, pardozda navo ochishda ishlatiladi. Minaor - uzun o‘qli, uch qismiga uchburchak shaklidagi o‘tkir kurakcha o‘rnatilgan bo‘lib, o‘yma zaminini tozalashda, tekislashda va chuqurlashda ishlatiladi.

Qalamtoq - tuzilishi xanjar ko‘rinishida bo‘lib, keskich qismi ikki tomonga qiyalab o‘tkirlangan. U tirnab chiziq chizishda, o‘yishda va ganchni teshishda ishlatiladi. Morpech qalam — o‘yilgan naqshlarning chetlariga yarim doiralar, bo‘rtma hosil qilish, o‘rovlarni qirqish hamda relefga pardoz berishda, o‘yilgan naqshlarning chetlariga zanjira, hoshiya atroflariga turli yarim doiralar, nuqtalar chiqarishda ishlatiladigan asbob.

Morpech qalam tuzilishi jihatidan yumaloq bo‘lib, sirt kesish uchun ishlatiladi. Lux — yarim silindr sirtlarni hosil qilishda ishlatiladigan asbob. Tuzilishi jihatidan keskich qismi yapaloq, yassi shaklda bo‘lib, uchi 90° buklangan bo‘ladi.

Qalam — xanjar shaklidagi asbob. Ba‘zilarining uchi qayrilgan bo‘ladi, axta yordamida tushirilgan naqshlar o‘chib ketmasligi uchun tirnab chizib chiqishda ishlatiladi.

Pilta qalam — uning uchi qayrilgan bo‘ladi. U yarim aylanadigan relyeflar hosil qilishda ishlatiladi. Patak binni — shuturgardonning bir turi. U raxlarni uchli qilib kesishda va o‘yishda ishlatiladi.



Nova - iskana ko‘rinishida bo‘lib, uchi egri, ilmoq singari buklangan, o‘tkir uchli asbob. Relyeflarni yumaloq qilib kesishda ishlatiladi. Shukufta — aylantirib teshik ochishda va chiziq chizishda ishlatiladi. Lo‘lakash — umumiy ko‘rinishi yarim yumaloq, buklangan, uchi yarim doira shaklida. Asosan, lo‘la pardozda ishlatiladi. Bu asbob o‘ymaning yirik yoki maydaligiga qarab, har xil o‘lchamda bo‘ladi. Sharafa qalam — uchi qayrilgan iskana. Mayda muqarnaslarni o‘yishda ishlatiladi.

Ganch o‘yrnakorligida ishlatiladigan naqshlar mazmuniga ko‘ra o‘simliksimon, geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlarga bo‘linadi. O‘simliksimon naqshlar tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, g‘uncha singarlari rasm naqqosh tomonidan biron - bir uslub va muayyan qonuniyat asosida takrorlanib hosil qilinadi.

Geometrik (handasiy) naqsh turlaridan biri — girih bo‘lib, u «chigal, tugun» ma‘nosini anglatadi. handasiy naqsh - murakkab naqsh turi bo‘lib, to‘rtburchak , uchburchak , ko‘pburchaklardan, aylana va yoylardan iborat bo‘ladi. Yevropada u «arabeska» deb yuritiladi. Gulli girih o‘simliksimon va geometrik naqsh elementlaridan tashkil topadi. Ramziy naqshlar kabutar, sher, baliq, va boshqalar tasvirlangan naqsh elementlaridan tashkil topadi.

Ganch - mahalliy qurilish material bo‘lib, uning rangi ko‘kish yoki sarg‘ish bo‘ladi. Ganch turli joylarda turlicha nomlar bilan yuritiladi. Kavkazda «gaja», forsha «gaj», tojikcha «ganch», turkcha «urunak», o‘zbekcha «ganch» deb yuritiladi. Ganch gips bilan tuproqning tabiiy aralashmasi bo‘lib, uning tarkibida 40 — 70 % gips bo‘ladi. Ganch ikki xil: tabiiy va sun‘iy bo‘ladi. Tabiiy ganch katta xarsang tosh holida bo‘lib, uni to‘g‘ridan - to‘g‘ri o‘yib, yo‘nib ustun, haykal va bezak sifatida foydalaniladi. Sun‘iy ganch esa maxsus pechlarda qizdirilib, keyin maydalab tayyorlanadi. Qadimda ganch tayyorlaydigan ustalar bo‘lib, ularni «ganchkorlar» deb ataganlar.

Ganchkor tabiiy ganch toshlarni xum donda 120-150 daraja haroratda kunduzi 6-7 soat qizdirilgan, so‘ng ertalabgacha sovitib qo‘yishgan. Erta bilan ganch toshlar maxsus to‘qmoqlar bilan maydalangan, so‘ng g‘alvir va elakdan o‘tkazilgan.



Bu ganch navlarga ajratilgan. Eng mayin, donachali ganch gulganch deb, ya'ni «gul o'yish uchun ishlatiladigan ganch» deb atalgan. Ganch qanchalik mayin bo'lsa, o'yma shunchalik nafis chiqqan. Mayin ganch nafis o'ymakorlikda, pardo suvoqda ishlatiladi. Yirik ganch har xil suvoq, qora suvoq va g'isht terishda ishlatiladi. Yuqori haroratda qizdirish natijasida ganch tarkibidagi nam juda kamayib, quvvati oshadi. Ganch o'rniga alebastr ham ishlatiladi. U suvoq, g'isht terishda, ayrim hollarda esa gulganch o'rnida ham ishlatiladi. Ganch o'ymakorligi bilan shug'ullangan ustalar ganchning quvvatini qanchalik tez yoki sekin qotishiga qarab aniqlaydilar. Tajribali ustalar ganchni qo'liga olib qisib ko'rgan zahotiyoyoq uning eski yoki yangiligini, quvvatini aytib bera oladilar.

Odatda, ganchning quvvatini aniqlash uchun ozgina qorib, o'yib ko'radilar. Agar u juda quvvatli bo'lsa, ming martagacha suvda qorishtirishni talab qilishi mumkin. Ganchning juda ko'p xususiyatlari bo'lib, ulardan mohirona, omilkorlik va shoshilmay foydalanish kerak. Ganch qadimda sirli lagan idishlarda qorilgan, hozir esa plastmassa idishlardan foydalaniladi. Ganch qorishning tez ganch, soxtaganch, do'g'ob, xovonda usullari bo'lib, ular o'ziga xos, nozik yoki murakkab bo'ladi. Qorishma tayyorlashda ushbu nozik jihatlarni e'tiborga olish ustaning muhim vazifasidir. Tez ganch — tez qotuvchi ganch qorishmasi bo'lib, ganchkorlikda ravoq bog'lashda, suvoqda va har xil ishlarda ishlatiladi. Bu qorishmani tayyorlash uchun idishdagi suv ustiga ganch solinadi va tez qoriladi. Ganch ko'p aylantirilmaydi hamda tezda kerakli joyga ishlatiladi. Soxtaganch — qorilganidan keyin 30 minut atrofida qotmay turadi. Soxta ganch qorishmasini tayyorlash uchun idishdagi suvga elangan ganch sepib solinadi, bu suv yuzasi ganch bilan berkitilgunga qadar takrorlanadi. Bunda ganch suvga to'yib boradi. Usta shu soxta ganch qorishmasini bir chekkadan olib, kerakli joyga ishlatadi. Do'g'ob usuli - biror yuzani to'ldirish, yoki berkitish uchun ishlatiladigan suyuq qorishma. Idishga suvsolinib, suv yuzi berkitilguncha ganch sepiladi. Bu ganch soxta ganchga qaraganda bir oz suyuqroq bo'ladi. Bu ganch berkitish yoki to'ldirish uchun ishlatiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI



1. Сулаймонова, М. Б., Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (3 (59)), 53-56.
2. Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., Тухсанова, В. Р., & Сулаймонова, М. Б. (2021). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОВЕДЕНИЯ БЕСЕД ОБ ИСКУССТВЕ. *European science*, (2 (58)), 38-40.
3. Азимова, М. Б. (2016). Роль композиции и цвета в холодном батике. *Молодой ученный*, (12), 959-961.
4. Азимова, М. Б., Азимов, Б. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ИСКУССТВО РОСПИСИ ТКАНЕЙ. *European science*, (2 (58)), 41-43.
5. Авезов, Ш. Н., Жумаев, К. Ж., Азимова, М. Б., & Ишанкулов, Ш. Ш. (2021). ИЗУЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА. *European science*, (2 (58)), 20-22.
6. Азимова, М. Б., & Авезов, Ш. Н. (2017). Костюмы в миниатюрах Мавераннахра. *Евразийский научный журнал*, (2), 373-378.
7. Азимова, М. Б. (2016). Искусство росписи тканей. *Евразийский научный журнал*, (6), 478-481.
8. Азимова, М. Б., & Ибадуллаева, Ш. И. (2017). XIX аср охири-XX аср бошларида Бухоро аҳоли турар жойлари интерьер безаги (Файзулла Хўжаев уй-музейи мисолида). *Евразийский научный журнал*, (2), 379-383.
9. Тухсанова, В. Р., Азимов, Б. Б., & Азимова, М. Б. (2021). ИЗВЕСТНЫЕ МАСТЕРА ЗОЛОТОГО ШИТЬЯ УЗБЕКИСТАНА. *European science*, (2 (58)), 65-68.
10. Ibadullaeva S. I. The Role of Art in the Development of Junior Schoolchildren //European Journal Of Innovation In Nonformal Education. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 130-133.